

Keyingi avlod ta'lim standartlari nima?

Keyingi avlod ta'lim standartlari bu bog'chagacha ta'lim muassasasidan 12-sinfgacha ingliz tili savodxonligi va matematika fanlari bo'yicha Nyu-York shtatidagi barcha o'quvchilar uchun ta'lim maqsadlaridir.

Standartlar nima uchun tahrirlandi?

Standartlar ular o'quvchilarning sinfiga mos bo'lishi va o'quvchilar matematika va ingliz tili savodxonligida nimalar bilishini aks ettirishini ta'minlash maqsadida tahrirlandi.

Keyingi avlod standartlari qachon tatbiq etiladi?

Nyu-York shtatining keyingi avlod ta'lim standartlarini to'liq tatbiq qilish 2020-2021 o'quv yilida bog'chagacha ta'lim muassasasidan 8-sinflargacha boshlanadi. [Tatbiq etish xronologiyasini](#) <http://www.nysed.gov/curriculum-instruction/next-generation-learning-standards-and-assessment-implementation-timeline> sahifasidan topish mumkin.

Standartlar qanday baholanadi?

O'qituvchilar har kuni sinf xonasida standartlarni baholar ekan, o'quvchilar ham 2021-yil bahoridan boshlab 3-8-sinfda Nyu-York shtatida ingliz tili savodxonligi va matematika fanlari bo'yicha baholanishni boshlaydi.

Ko'proq ma'lumotlarni qayerdan olishim mumkin?

Siz [Keyingi avlod ingliz tili savodxonligi va matematika bo'yicha ta'lim standartlari](#) haqida farzandingizning o'qituvchisi bilan gaplashib yoki www.nysed.gov/next-generation-learning-standards sahifasiga kirish orqali batafsil ma'lumot olishingiz mumkin.

Uydagi ta'limni qo'llab-quvvatlovchi ota-onalar uchun resurslar



[Ingliz tili savodxonligi va matematika bo'yicha keyingi avlod ta'lim standartlari](http://www.nysed.gov/next-generation-learning-standards)

www.nysed.gov/next-generation-learning-standards

[Nyu-York shtati ota-ona-o'qituvchi uyushmasining \(PTA\) ota-onalar uchun resurslari](http://nyspta.org/home/parent-resources/)

nyspta.org/home/parent-resources/

[Nogironligi bor o'quvchilarning ota-onalari uchun resurslar](http://www.p12.nysed.gov/specialed/quality/parents.htm)

www.p12.nysed.gov/specialed/quality/parents.htm

[Ko'ptilli o'quvchi/Ingliz tili o'quvchisining ota-onasi uchun resurslar](http://www.nysed.gov/bilingual-ed/english-language-learnermultilingual-learner-parent-resources)

www.nysed.gov/bilingual-ed/english-language-learnermultilingual-learner-parent-resources

[Nyu-York shtati ta'lim boshqarmasi, O'quv dasturi va ta'lim bo'limi](http://www.nysed.gov/curriculum-instruction)

www.nysed.gov/curriculum-instruction

E-pochta: EMSCURRIC@nysed.gov

Telefon: (518) 474-5922




Nyu-York shtatining keyingi avlod ingliz tili savodxonligi va matematika bo'yicha ta'lim standartlariga oid ota-onalar uchun yo'riqnoma



Standartlar va farzandimning sinfdagi ta'limi

O'quvchining ta'limi maqsadlar aniq belgilanganda yaxshiroq ta'minlanadi. Quyidagi model ta'limning asosiy qismlari birgalikda qanday ishlashini ko'rsatadi. O'quvchilar ta'limidagi asosiy e'tibor o'quv dasturi, o'qitish va baholashga bog'liq. Ta'lim standartlari o'quvchilar har bir o'quv yili oxirigacha o'rganishi lozim bo'lgan umumiy bilim va ko'nikmalarni namoyon etadi.



<p>Standartlar (Standards)</p> <p><i>"Nimalarni o'rganishimiz lozim?"</i></p>	<p>Standartlar bu:</p> <ul style="list-style-type: none"> Nyu-York shtatidagi o'quvchilarning maqsadlari ular fanlar va sinf darajalariga qarab tartiblangan ma'lum o'quv yili oxirigacha amalga oshirilishi lozim bo'lgan ta'lim jarayoni Nyu-York shtati vasiylar kengashi tomonidan (New York State Board of Regents) tasdiqlangan <p><i>Bog'chadagi matematika standartiga misol: Konkret obyektlardan foydalanib sodda namunalardan nusxa oling va kengaytiring. Misol: Rangli bloklar yoki kafellar.</i></p>
<p>O'quv dasturi (Curriculum)</p> <p><i>"Nimalarni o'rganyapmiz?"</i></p>	<p>O'quv dasturi bu:</p> <ul style="list-style-type: none"> standartlar talablariga javob berish uchun o'quvchilar o'rganadigan mundarija, tushunchalar va ko'nikmalar alohida maktab okruglari tomonidan belgilanadi <p><i>Misol: she'riyat bo'yicha dars yoki ikki raqamli sonlarni ko'paytirish haqidagi dars kabi mahalliy maktab okruglari ishlab chiqqan o'quv darslari.</i></p>
<p>O'qitish (Instruction)</p> <p><i>"Qanday o'rganyapmiz?"</i></p>	<p>O'qitish bu:</p> <ul style="list-style-type: none"> o'qituvchi o'quv dasturi bo'yicha o'qitish uchun tanlaydigan yondashuv va strategiyalar o'quvchilarning ehtiyojlariga bog'liq sinf o'qituvchilari va maktab okruglari tomonidan belgilanadi <p><i>Misol: kichik guruhda o'qitish yoki birgalikda o'qish</i></p>
<p>Baholash (Assessment)</p> <p><i>"Nimalarni o'rgandik?"</i> <i>"Endi nimalar qilamiz?"</i></p>	<p>Baholashlar bu:</p> <ul style="list-style-type: none"> o'quvchining natijalarini o'rganish uchun foydalaniladigan jarayonlar o'qitishni yo'naltiradi va axborot beradi mahalliy maktab okruglari va/yoki o'qituvchilar hamda Nyu-York shtati tomonidan belgilanadi <p>* Nyu-York shtati quyidagilarni tatbiq etadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> 3-8-Sinflarda ingliz tili savodxonligi va matematika bo'yicha baholashlar 4 va 8-sinflarda ilmiy fanlar bo'yicha baholashlar Davlat imtihonlari Ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganish bo'yicha o'zlashtirishni baholash sinovi (English as a Second Language Achievement Test (NYSESLAT)) Muqobil baholash (Alternate Assessment (NYSAA)) <p><i>Misol: o'quvchining namunalarni tanishini sinfda kuzatish yoki o'quvchining sinfdagi yozuv namunasini tahlil qilish</i></p>